



YURAK ISHEMIK KASALLIGI

Ikromova Dilrabo Islamovna

*Buxoro viloyati G'ijduvon tumani Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat
salomatligi texnikumi*

Annotasiya: Yurak ishemik kasalligi butun dunyo bo'ylab kasallanish va o'limning asosiy sababi bo'lib qolmoqda. Ushbu maqola yurak ishemik kasalligining ko'p qirrali sabablarini har tomonlama ko'rib chiqishga qaratilgan. Genetik, atrof-muhit va turmush tarzi omillarini o'rganish, shuningdek, yangi hissa qo'shuvchilar bo'yicha paydo bo'lgan tadqiqotlar orqali ushbu maqola Yurak ishemik kasalligi ning murakkab etiologiyasi haqidagi tushunchani yaxshilashga harakat qiladi.

Kalit so'zlar: Yurakning ishemik kasalligi, Koronar arteriya kasalligi, ateroskleroz, tromboz, xavf omillari, irsiy omillar, Turmush tarzi, Atrof-muhit omillari, zararli odatlar.

Аннотация: Ишемическая болезнь сердца остается основной причиной заболеваемости и смертности во всем мире. Целью данной статьи является предоставление всестороннего обзора многогранных причин ишемической болезни сердца. В данной статье предпринята попытка улучшить понимание сложной этиологии ишемической болезни сердца посредством изучения генетических, экологических и образ жизни факторов, а также новых исследований новых факторов.

Ключевые слова: Ишемическая болезнь сердца, Ишемическая болезнь сердца, атеросклероз, тромбоз, факторы риска, наследственные факторы, Образ жизни, Факторы окружающей среды, вредные привычки



Abstract: *Coronary artery disease remains a leading cause of morbidity and mortality worldwide. This article aims to provide a comprehensive review of the multifaceted causes of coronary artery disease. By examining genetic, environmental, and lifestyle factors, as well as emerging research on novel contributors, this article attempts to improve our understanding of the complex etiology of coronary artery disease*

Keywords: *Ischemic heart disease, Coronary artery disease, atherosclerosis, thrombosis, risk factors, hereditary factors, Lifestyle, Environmental factors, harmful habits..*

Yurak ishemik kasalligi (YuIK) butun dunyo bo'ylab salomatlik uchun jiddiy muammo bo'lib, uning patogenezigiga turli xil xavf omillari yotadi. **Yurakning ishemik kasalligi** — yurak qon tomir sistemasining keng tarqalgan kasalligi; miokard ishemiyasi va koronar qon aylanishining buzilishi bilan kechadi. Yurakning ishemik kasalligiklariga, asosan, koronar (toj) tomir arteriyalari ateroskleroz natijasida yurak muskullarida qon aylanishining yetishmay qolishi va shu tufayli yurakning qonga yolchimasligi sabab bo'ladi. Yurakning ishemik kasalligiklariga stenogkardiya (dastlabki, muqim, nomuqim), miokard infarkti, infarktdan keyingi kardioskleroz, aritmik tur va yurak yetishmovchiligi kiradi. Yurakning ishemik kasalligi muntazam rivojlanib boruvchi og'ir yurak xastaligi hisoblanadi. Yosh ulg'aygan sari kasallik uchrashi ko'payadi.

YU.i.k. klinik jihatdan bir xilda kechmay, dam zo'rayib, dam bosilib turadi. Ko'pincha Yurakning ishemik kasalligik. zimdan kechib, bemor o'zining shunday xavfli kasallikka chalinganini bilmay, shifokorga murojaat qilmay yuradi. Odatda, Yurakning ishemik kasalligik.ning dastlabki klinik belgilaridan biri — zo'riqish stenokardiyasi xuruji bo'lib, jismoniy ish bajarilganda ro'y beradi. Keyinchalik kasallik uzoq davom etishi, hatto yillab cho'zilishi mumkin. Ko'pincha zo'riqish



stenokardiyasiga birmuncha vaqtdan keyin tinch holatda ham kuzatiladigan tinch holat stenokardiyasi hurujlari qo‘shilishi mumkin.

Yurak ishemik kasalligining kelib chiqishi va rivojlanishiga kishilarning yoshi, kasallikka irsiy moyillik, gipertoniya kasalligi, qandli diabet, semirib ketish, ichkilikka ruju qilish, kashandalik, kam harakat (gipodinamiya), jismoniy hamda ruhiy zo‘riqish va boshqalar sabab bo‘ladi. Kashandalar o‘rtasida Yurakning ishemik kasalligining nisbatan ko‘p uchrashi kuzatilgan.

Yurak ishemik kasalligining rivojlanishida, ayniqsa, xolesterinning roli katta. Qonda xolesterin miqdorining oshib ketishi aterosklerozga sabab bo‘ladi va bu Yurakning ishemik kasalligik. rivojlanish xavfini oshiradi.

Yurak ishemik kasalligining xavfli omilini bartaraf etsa bo‘ladigan va bartaraf etib bo‘lmaydigan xillari bor. Mas, ko‘krak qisishi (stenokardiya), miokard infarkti, insultni bartaraf etib bo‘lmaydi; agar odam bu kasalliklar bilan bir marta og‘rib o‘tgan bo‘lsa, Yurakning ishemik kasalligi. rivojlanish xavfi ko‘proq bo‘ladi.

Yurak ishemik kasalligining dastlabki bosqichi stenokardiya bo‘lsa, miokard infarkti uning eng og‘ir shaklidir. Stenokardiya bilan bemor uzoq vaqt yashashi mumkin, ammo dastlabki davrida (birinchi uch kun) 20—30% bemorda miokard infarkti kuzatiladi. Miokard infarktining klinik belgilari, odatda, stenokardiya belgilariga o‘xshash bo‘lib, faqat og‘riq uzoqroq va kuchliroq davom etadi. Bunda dastlabki soatlardayoq o‘lim ro‘y berishi yoki keyinchalik ham jiddiy asoratlar kuzatilishi mumkin. Infarktdan keyingi kardioskleroz, yurak aritmiyasi, yurak yetishmovchiligi aslida Yurakning ishemik kasalligik. ning asoratlari bo‘lib, yuraktomir sistemasi kasalliklaridan bo‘ladigan nogironlik va o‘limning asosiy sabablaridir. Yurakning ishemik kasalligik. ga gumon qilinganda darhol bemorni kasalxonaga yotqizish zarur. Kasallikning klinik belgilari (kasallik tarixi, bemor



shikoyatlari, perkussiya, auskultatsiya, umumiy koʻruv), elektrokardiografiya, yurak muskullariga xos fermentlar va struktura elementlari (kreatinin fosfokinaza izofermentlari, mioglobin va boshqalar) hamda qon tahlili, exokardiografiya va boshqalar tekshiruv natijalariga qarab diagnoz qoʻyiladi.

Yurak ishemik kasalligini davolash terapevtik va jarrohlik usulida olib boriladi. Yurakning ishemik kasalligik. da parhezga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Ovqatning umumiy miqdori va kaloriyasini cheklab, vaznni meʼyorida saqlashga harakat qilish, badan tarbiya bilan shugʻullanish, mehnat va dam olishni uygʻunlashtirish, vrach koʻrsatmalariga bekamu koʻst amal qilish lozim. Chekishni tashlash shart. Yurakning ishemik kasalligik. ning oldini olish uchun gipertoniya kasalligi, qandli diabet va boshqalarni davolash zarur

Oldini olish-Yurak ishemik kasalligi profilaktikaan quyidagilarni oʻz ichiga oladi.

Chekishni istisqo qilish, xolestirinni kamaytirishga qaratilgan parhez, kundalik jismoniy faollik, stressdan qochish

Yurak ishemik kasalligi bilan ogʻrigan bemorlar kardiolog shifokor nazoratida boʻlishlari kerak.

Manbalar

[tahrir | manbasini tahrirlash]

1. ↑ „BO3 | Serdechno-sosudistie zabolevaniya“. WHO. Qaraldi: 2019-yil 30-mart.
2. ↑ „Статистический сборник 2017 год“ (ru). www.rosminzdrav.ru. Qaraldi: 2019-yil 30-mart.
3. Л.И. Агеева, Г.А. Александрова, Н.М. Зайченко, Г.Н. Кириллова, С.А. Леонов, Е.В. Огрызко, И.А. Титова, Т.Л. Харькова,



В.Ж. Чумарина, Е.М. Шубочкина. *Здравоохранение в России. 2017: Стат.сб./Росстат, 2017. ISBN 978-5-89476-448-1.*

4. [↑](#) [Jump](#) [up](#) [to:4.0](#) [4.1](#) [4.2](#) [4.3](#) [4.4](#) [4.5](#) „Сердечно-сосудистые заболевания“ (ru). www.who.int. Qaraldi: 2019-yil 30-mart.

5. [↑](#) „Профилактика сердечно-сосудистых заболеваний - ГУЗ "Поликлиника №4" г.Волгограда“. poliklinika4vlg.ru. Qaraldi: 2019-yil 30-mart.

6. [↑](#) [Jump](#) [up](#) [to:6.0](#) [6.1](#) [6.2](#) [6.3](#) [6.4](#) [6.5](#) *Руководство по кардиологии в четырех томах. Том 3: Заболевания сердечно-сосудистой системы (I).* Практика, 2014.

7. [↑](#) {{{заглавие}}} — ISSN 2077-6764.

8. [↑](#) „Четвертое универсальное определение инфаркта миокарда (Европейское Общество Кардиологов 2018)“ (ru). cardioweb.ru. Qaraldi: 2019-yil 30-mart.

9. [↑](#) „Цереброваскулярные заболевания“. www.emcmos.ru. Qaraldi: 2019-yil 30-mart.